

MUHAMMAD ALINING “MANGU QUYOSH” ROMANIDAGI TARIXIY OBRAZLARDAN ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO OBRAZLARIGA TAVSIF

Usmonova Sharifa Gulamovna

*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti
Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
“University of economics and pedagogy” NOTM o‘qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy obrazga atroflicha tavsif berilgan hamda mana shu tavsif asosida Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanidagi ayrim obrazlarning badiiy funksiyasi tahlil qilingan. Tahlil qilish jarayonida obrazlarning tarixiyligiga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, xarakter, badiiy asar, qahramon, detal obrazlar

Badiiy asar asos- negizini tashkil qiladigan obraz tushunchasi qadimdan to hozirga qadar tarixiy va nazariy poetikaning eng muhim komponenti sanaladi. Zero, badiiy asar bu san‘at asarining o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi vositadir. Obraz san‘atning xususiyatlarini belgilabgina qolmasdan, dunyoning estetik xususiyatlarini, ularning muayyan –hissiy xilma-xilligini aks ettiradigan baholovchi element hisoblanadi.” Biroq badiiy obraz-bu boshqa usul bilan ifodalanishi mumkin bo‘lgan umuman haqiqatning tashqi qobig‘i emas. U o‘zining mazmuni va shakli orqali hayotdagi hodisalarning umumlashuvini ifodalaydi. Ma’lumki, jiddiy badiiy obraz –bu insoniyatning ma’naviy madaniyatini boyituvchi ijodiy kashfiyotdir”¹. Adabiy asarlarning prinsipial muhim ahamiyti hayotga nisbatan sintetik va ayni paytda muallifning shaxsiy yondashuvidan iborat. Badiiy obrazning umumiy jihatlariga tavsif bergan rus olimi V.G.Belinskiy shunday yozadi:”Badiiy obraz nafaqat hayotni qayta tasvirlab beradi, balki hayotni baholash orqali anglash maqsadida mualliflar uchun uning ahamiytli jihatlarini yanada yaqqol ko‘rsatadi, jamlaydi”.²

Obraz termini rus tilidan olingan bo‘lib, o‘zbekchaga tarjima qilinganda “aks” degan ma’noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksi obraz deyiladi. Biroq, bilamizki, so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan istilohiy ma’nosi farqlanadi: lug‘aviy ma’no bilan istilohiy ma’no orasida tutash nuqtalar bo‘lsa-da, mutaxassis istiloh ostida

¹ Храпченко М. Б. Горизонты художественного образа. – М.: Художественная литература, 1986. – 69 с

² Тьюнкийн К. И. Учение Белинского о художественности. Автореф. дис. канд. филол. наук. – МГУ. 1956. - 10 с



konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga kor'a, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.³

Badiiy obrazga "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan: Badiiy obraz - adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug'aviy ma'nosida har qanday aksni bildiruvchi "obraz" so'zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u "badiiy obraz" tushuniladi. Badiiy obraz deganda, borliq (undagi inson, narsa, hodisa va h) ning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik - badiiy borliqdir. Xuddi shu hol badiiy obrazni obyektiv va subyektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Ya'ni, bir tomondan, borliqning aksi sifatida badiiy obraz makon va zamonda mavjud bo'lgan konkret narsadek his etiladi. Ikkinchi tomondan, u tushuncha, tasavvur, faraz va sh.k tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi⁴

Demak, yuqorida aytilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarni aytishimiz mumkin: badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Badiiy obrazning muhim vazifasi unig hayotdagidek salmoqdorlik, yaxlitlik va jonlilikka ega bo'lishidir. O'zbek adabiyotida obraz yaratish, ayniqsa, tarixiy shaxs obrazini yaratish yozuvchidan ikki hissa talabchanlikni, ziyraklikni talab etadi. Shu ma'noda Muhammad Alini tarixiy shaxslar obrazini yaratishda tajribasi boy adiblar qatoriga qo'rqmasdan qo'sha olamiz. Sababi adibning ko'plab tarixiy asarlar muallifi ekanligi hammmizga ayon. Uning "Sarbadorlar" diologiyasi, "Ulug saltanat" nomli roman epopeyasi, "Kleopatra" kabi tarixiy romanlari o'quvchiga juda yaxshi tanish. Adib tarixiy roman yozish an'anasini davom ettirgan holda, yangi asarga qo'l urib, "Mangu quyosh" romanini yozdi. "Mangu quyosh" romanida xalqimizning buyuk shoiri, mutafakkiri, so'z san'atkori, diniy-ma'rifiy va falsafiy-irfoniy g'oyalarni nazmiy asarlari orqali yuksak darajada badiiy talqin etgan Hazrat Alisher Navoiy obrazini gavdalandirgan. Hazrat Alisher Navoiy obrazini o'zbek adabiyotiga olib kirgan shaxs bu - Oybekdir. Oybekning "Navoiy" romaniga qadar o'zbek adabiyotida Navoiy haqida katta hajmli asarlar

³ D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. -68-bet

⁴ D. Quronov. 3. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati, Toshkent. Akademiya nashri, 2010. B-44



bo'lmagan. Bu roman xalqimizni Navoiy bilan to'laqonli tanishtirgan asardir. Shu ma'noda Oybekning "Navoiy" romani Alisher Navoiy haqida yaratilgan keyingi asarlarga ko'prik rolini bajardi deb, ayta olamiz. Oybekning ushbu romani orqali xalqimiz Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Hadichabegim, Majididdin, jaji shahzoda Mo'min Mirzolari tanidi. Oybek mustabid tuzum taqozosi bilan Navoiyning diniy va siyosiy qarashlarini ifoda eta olmagan bo'lsa, buni istiqloq davrida Isajon Sulton va Muhammad Alilar o'z asarlarida baralla kuylashga muvaffaq bo'lishdi. Mashhur adabiyotshunos olim M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek, "tarixiy shaxs yashagan, ishlagan muhitga ko'proq e'tibor berish, bizning nazarimizda, yirik siymolar obrazini yartishning muhim tomonidir".

Navoiy – tarixiy shaxs, qadimda yashab o'tgan buyuk alloma. Navoiydek buyuk shaxs obrazini yaratish avval ta'kidlaganimizdek, yozuvchidan katta kuch, ulkan mahorat talab etadi. Yozuvchi, birinchidan, tarixiy haqiqatni yoritish uchun uzoq o'tmish voqeligini o'sha davr manbalari asosida o'rganishga harakat qiladi. Ikkinchidan, o'sha davrda yashab o'tgan tarixchi olimlar tomonidan bitilgan asarlarni o'rganadi. Tarix va adabiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchlardir. Ularning biri ikkinchisini to'ldirib, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Tarix muayyan makon va zamondagi ma'lum shaxslar hayoti haqida real ma'lumotlar taqdim etsa, badiiy adabiyotning vazifasi esa sal o'zgacharoq. Zero badiiy adabiyot muayyan tarixiy hodisalarni, shaxslarning kechmishini badiiy jihatdan sayqallab, turli badiiy- tasviriy vositalardan foydalangan holda o'quvchiga yetkazib beradi. Shu ma'noda badiiy adabiyotda tarixiy shaxslar obrazi yozuvchining qaysi rakursdan yonadashishiga qarab, kelgusida o'quvchi tasavvurida yaxshilik yoki yomonlik, saxiylik yoki baxillik, mardlik yoki nomardlik timsoliga, ijodkor orzu-istaklarining ifodachisiga aylanishi mumkin.

Tarixiy mavzulardagi asarlarda tarixiylik va milliylik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bunday asarlarda ular bir-birlarini to'ldirib keladi. Asar qahramonlarining nafaqat o'ziga xosligini, balki ularning zohiriy va botiniy dunyosini ifoda etgan portret tavsifi, yorqin xarakterlari, milliy ko'rinishi ham yetakchi o'rinlarni egallaydi. Muhammad Alining "Mangu quyosh" romanidagi Alisher Navoiy obrazini ham tarixiy obraz, ham individual obraz deb ayta olamiz. Ma'lumki, tarixiy obraz – bu tarixda yashab o'tgan kishi obrazidir. Individual obraz deb o'ziga xos fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xarakter xususiytlari bilan namoyon bo'luvchi obraz tushuniladi. Asarda Navoiy o'zining faqatgina o'ziga xos fe'l-atvori bilan, raiyyat bilan olib boradigan turli munosabatlarida, ziddiyatli jarayonlarda so'zni to'g'ri qo'llay bilishi bilan ham namoyon bo'ladi. Zero, shoirning o'zi bu haqida quyidagicha aytgan edi:



Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur, uni yor aylar.
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.

Navoiy haqiqatan ham individual shaxs. Uning har bir so'zi, har bir jumlasini ilohiy xitobga o'xshaydi. Roman boblarini o'qish jarayonida ham bunga amin bo'ladi o'quvchi. Ayniqsa, Badiuzzamon Mirzoning farzandiga ism qo'yish jarayonini eslash kifoya.... Shahzoda Hazrat etagini uch bor o'pib ko'zlariga surtdi.

- Hazrat! Chaqaloqning ismini qo'yib bersunlar. Kim deb atagaymiz? - javdirardi Badiuzzamonning qiyiq ko'zlari. Xizo tortib yurmasun! - dedi Navoiy. Ism unga g'urur, shuhrat-shon bersun! Subhonollo, o'zlarining ismlarini ham o'zimiz qo'yg'ondik. Zamon qanchalar tez, yeldek kechmakda! Mana endi o'g'illariga ism izlamakdabiz... Aslida kimdir ism izlasa, uni ham Xudo ko'ngliga soladur. Alqissa Parvardigor dilimga shu palla bir ilhom berdiki, tilimning uchiga bir ism keldi...

- Qanday ism, Hazrat?.. - hapqirdi yosh ota... Navoiy shahzodani ko'p intiqtirmadi va dedi:

- Uning ismi Muhammad Mo'min Mirzo bo'lsun!

Demak, bolaga chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyatlaridan hisoblanadi. Islom tarixida bo'lib o'tgan ajoyib hodisalardan xabardor har bir ota-ona qanday sharoitda bo'lmasin, farzandiga chiroyli, ma'nosi ham go'zal ism qo'yishga harakat qiladi. Zero, ism o'z egasining xulq-atvoriga, hatto taqdiriga ham ta'sir qilishi aytilgan. Qiyomat kunida har bir inson o'z ismi bilan chaqiriladi. Ism qo'yish borasida hadislarga yuzlanamiz. Abu Dardodan rivoyat qilinadi: Rasululloh (sollallohu alayhi vassalam) aytdilar: "Batahqiq, qiyomat kuni sizlar o'z ismlaringiz va otalaringiz ismlari bilan chaqirilasizlar. Bas. (shundoq ekan) ismlaringizni go'zallashtiring!" O'g'il bolalarga payg'ambarlarning muborak ismlarini qo'yish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vassalam) ismlaridan "Muhammad", "Ahmad" kabilarni qo'yish fazilatlidir. Mana shu an'anaga binoan Alisher Navoiy ham islom dinini arkonlariga amal qiladigan shaxs sifatida chaqaloqqa Muhammad Mo'min Mirzo deb ism qo'ygan va bu shahzodaga nisbatan boshqacha mehr-muhabbat ko'rsatgan.

"Mangu quyosh" romanidagi tarixiy obrazlardan yana biri - Sulton Husayn Boyqaro obrazidir. Ushbu obraz orqali adib shoh va shoir, buyuk foh, davlat arbobi, haqiqiy do'st, qatiiqqo'l ota, Hadichabegimdek ayolning sevimli yori sifatida gavdalantirgan. Romanni o'qir ekanmiz Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy bilan bo'lgan do'stlik rishtalari ularning bolalik yillaridan boshlanganligini, bu aloqalar ular ulg'aygani sari rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu do'stlikning



hukmini ustoz Shayx Savsaniy e'tirof etgan. U Husayn bilan Navoiyning do'stligini yalakat mag'izga o'xshatadi. Yalakat mag'iz, bu-qo'sh mag'iz, boshqacha aytsak, egizak mag'izdir."...Sizlarning do'stligingizni dunyoda hech narsa, hech narsa buza olmasun! Hech narsa bir-biringizdan ayira olmasun! Do'stligingizdan olam hayratda qolsun!...Alisher va Husayn-yalakat mag'iz bir-biringiz uchun bo'ling azizdan-aziz! Bunday do'stlik uchun ont ichmak, qasamyoq qilmak vojib sanalur! Bu do'stlik qasamyodiga Navoiy umrining oxirigacha sodiq qoldi. Husayn Boyqaro mastlik oqibatida sevimli nevarasi Muhammad Mo'min Mirzoni qatl ettirganida Xondamir quyidagi fikrlarini aytadi: "Shunday Qabohatga yo'l qo'yg'on kishi bilan do'stlashmoq mumkinmi? Sizga jonim achig'ondan achiydur, Hazratim! Bundog' kishidan yuz o'g'irmoq eng to'g'ri yo'ldir! Navoiyning bunga javobi faylasufona javob bo'lgan. Oh, Xondamir, Xondamir! Sultoni Sohibqiron birlan bir umrlik do'stdirbiz, umrimning boyligi Sulton Husayn Mirzo birlan do'stligimdir. Umrim poyoniga yetib turg'onda nogahoniy sabab deb, qandog' qilib bir umrlik toat-ibodatimdan ayrilay, bu dunyoligimni sovuray?... Mo'min Mirzo mening ham ardoqli shahzodam edi... Uning musibati nechog'lik og'ir esa-da, bizning Sultoni Sohibqiron bilan do'stligimizga daxl qilmakdin ojizdur..."⁵


Yuqoridagi satrlarning o'zi Navoiyning do'stiga bo'lgan mehr-muhabbatining chegara bilmasligini, ushbu do'stlikka hech qanday g'ov to'siq bo'lmasligini ko'rish mumkin. Qay holatda bo'lsa ham Navoiy do'sti bilan faxrlanadi, o'zining butun shijoatini, aql-idrokini, salohiyatini, umrini uning saltanati ishlari rivojiga, ravnaqiga baxshida etib qo'ygan, fido qilishga tayyor!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Храпченко М. Б. Горизонты художественного образа. – М.: Художественная литература, 1986. – 69 с
2. Тюнькин К. И. Учение Белинского о художественности. Автореф. Дис. Канд. Филол. Наук. – МГУ. 1956. - 10 с
3. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. -68-bet
4. D.Quronov. 3.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati, Toshkent. Akadernashr, 2010 .B-44

⁵ . Sh.G.Usmonova."Muhammad Alining "Mangu quyosh" romanida Alisher Navoiy obraziga tavsif" Central Asian of education and innovation.Vol 3.120-bet.2024- y





5. Sh.G.Usmonova."Muhammad Alining "Mangu quyosh" romanida Alisher Navoiy obraziga tavsif "Central Asian of education and innovation.Vol 3.120-bet.2024- y

